



ADABIYOTSHUNOSLIKDA RANGLAR TIZIMI VA SPESIFIKASI

Ziyodulloeva Aziza Akmalovna

O'zDJTU ingliz tili amaliy aspektlari

kafedrasi stajyor o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7421110>

ARTICLE INFO

Received: 29th November 2022

Accepted: 08th December 2022

Online: 10th December 2022

KEY WORDS

Rang, rang ramziyligi, poetik
ma'no, lug'aviy ma'no.

ABSTRACT

Maqolada jahon adabiyotshunosligida ranglar va ular bilan bog'liq ramziyliklar tahlilga tortilib, rang ramzlarning poetik va lug'aviy ma'nosi o'rtasidagi bilvosita bog'lanish, obraz bilan bog'liq tasavvurlar tahlilga tortilgan.

Rang ramzlar asrlar davomida shakllanib, tarixan xalqning qadimiy mif, turli e'tiqodiy dunyoqarashlariga borib bog'lanadi. Barcha turdagi ranglarning tub ildizi xalqning u yoki bu mifologik tasavvur, e'tiqodiy qarashlariga bog'liqdir.

Rang ramzlar barqaror shakl va tub mazmunga ega. Ramz sifatida keluvchi barcha ranglarning barqaror shaklga egaligini folklorning barcha janrlari misolida ko'rsatish mumkin.

Rang ramzlarning poetik ma'nosi obraz ichida yashirin keladi. Muayyan matnda bu yashirin poetik ma'no xalqning ushbu obraz haqidagi tasavvur-tushunchalari asosida anglashiladi.

Rang ramzlarning poetik va lug'aviy ma'nosi o'rtasida bilvosita bog'lanish mavjud. Obraz bilan bog'liq tasavvurlar unutilsa, ramziy ma'no anglanmay qoladi.

Rang ramzning tub ma'nosi muayyan matnda ramziy "qo'shimcha"lar vositasida o'z ma'no ko'lamini u yoki bu darajada kengaytiradi. Ba'zi holatlarda o'zak ma'noga bevosita bog'liq yangi poetik ma'nolar hosil bo'ladi. Bu holat xalq lirikasiga tegishli namunalarda yaqqol

kuzatiladi. Shu yo'l bilan poetik ramzning cheksiz badiiy imkoniyatlari namoyon bo'ladi.

Ayni paytda rang ramzlarga xos qo'shimcha xossalari ham mavjud. Bu xossalarni quyidagi ko'rinishda umumlashtirish mumkin:

Rang ramzlar folklorning har bir janrida o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Marosim folklori namunalarda magik-poetik ma'no tashisa, nomarosim folklor janrlarida badiiy-estetik mazmun ifodalaydi.

Shaklan rang ramzlar, asosan, juft so'z yoki birikma shaklida keladi. Til nuqtai nazaridan bu birlikda rang sifatlari ko'rinishini oladi. Lekin matnda ramziy ma'noni shakllantiruvchi vazifa bajaradi. Masalan, Oq dev, Sariq dev, oq olma, qizil olma, ko'kkina qush. Ushbu birikmalarda ramzning ma'nosi rang asosida oydinlashadi.

Har bir xalqning tafakkur tarixini uning folkloridagi betakror obrazlar – ramz va timsollar asosida o'rganish mumkin. Jumladan, rang bilan bog'liq ramz-timsollar ham ushbu qatordan munosib o'rin



egallaydi. Biz yuqorida dunyo xalqlari ibtidoda anglab, ramziy ma'no bergan uch rang – oq, qizil va qora haqidagi fikr-mulohazalarni bildirib o'tdik hamda keyinchalik boshqa ranglarni ajratish paydo bo'lganligini ta'kidladik. Bu jarayon har bir xalq tarixida turli darajada kechganligini qayd etish lozim. Xalqning qaysi jo'g'rofiy hududda yashashi, bu hududning tabiati, iqlimi, tashqi olam bilan aloqaga kirishish imkoniyati va darajasi yetakchi faktor sanaladi. Xalq tafakkuri, tilida ayni hudud tabiati, iqlimi, uning asosiy shug'ullanuvchi sohasi bilan bog'liq leksik qatlam ko'pchilikni tashkil etadi. Bu holat ularning ranglarni ajratishida ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, shimoliy qutbga yaqin, qorli o'lkalarda yashovchi elatlar tilida qor, bo'ron, shamolning tur va xillarini ajratuvchi so'zlar ko'p uchraydi, aksincha, janubiy issiq o'lkalarda yashovchi xalqlarda buning aksini ko'rish mumkin. Xuddi shuningdek, bizning turkiy qavm va millatlarning tilida ularning doimiy ravishda to'rt fasl muntazam almashinib turuvchi mo'tadil o'lkada yashaganlari, asosiy xo'jalik yuritish sohalari chorvachilik va dehqonchilik bilan bog'liq bo'lganligidan ularning tillarida ayni sohalarga tegishli ranglar ustuvor ko'rinish olgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, inson ko'zi borliqdagi 360 xil rangni ko'ra olish qobiliyatiga ega ekan. Lekin shuncha rang asosini, baribir, olti xil rang tashkil etishi aniqlangan.¹ Bular oq, qora, qizil, sariq, yashil, ko'k ranglaridir. Ehtimol, bunga qadimgi insonlarning olamda o'z hayoti, turmush tarzi uchun juda muhim va zarur bo'lgan olti stixiyani (osmon yoki havo – ko'k, yer – qora, quyosh – sariq, suv – oq, olov – qizil,

o'simliklar – yashil) olti xil rangda ko'rib qabul qilganligi sababdir. Zero, qadimgi xitoyliklar oq – suv, qora – metall, yashil – daraxt, qizil – olov, sariq – yer tarzida olamdagi besh stixiyani ifodalagan.²

Butun olam tuzilishi, makon chegaralarini ham rang orqali ifodalash an'anasi qadim tushunchalar sirasiga kiradi. Yunon olimi Empidokl to'rtta unurni to'rt rang asosida beradi. Ya'ni, olov – sariq, suv – oq, yer – qora, osmon – ko'k. Xuddi shu unsurlarning rang orqali ifodalanishi Arastuda boshqacha ta'riflangan. U yer, suv, havo unsurlarining oq rangga xosligini ta'kidlaydi va o'z asarlarida oq rang ranglarning "ibtidosi" deydi. Arastuning – "Hissiyotni idrok etish" kitobida ranglarning asosiysi oq va qora deyilgan. U qora rangni – tartibsizlik, xiralik ramzi sifatida beradi, qolaversa, nimaningdir parchalanishini, yemirilishini qora rangga bo'laydi.

Aksariyat xalqlarning mifologik va diniy qarashlarida insonni o'rab turgan muhit – makon va vaqt tushunchalarini ranglar orqali ifodalash holati kuzatiladi. Jumladan, dunyoning qutbi to'rt xil rangda tasavvur qilingan: Sharq – yashil, Janub – qizil, Shimol – qora, G'arb – oq rangda. Chunonchi, "Svetovedeniya"da "G'arb oq rang bilan belgilangan. G'arb esa o'lim va g'am-anduh vatani. Shuning uchun Xitoy va Yaponiyada oq rang motam va o'lim rangi hisoblanadi",³ – deyilgan. Shu asosda mintaqalarning har birida yashovchilar uchun o'sha rang muqaddas sanalgan.

Hayotimizda rang ramziyligi muhim ahamiyat kasb etadi va o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'maydi. Ranglar har doim atrofimizda bo'lib, his-tuyg'ularimizga va

¹ Кўзиев Т., Эгамов А. Ранг тасвир. Тошкент, 2003. – Б.26-28.

² Календарные обычаи и обряды народов Восточной Азии. Новый год. – М.: Наука, 1985. – С.59.

³ Миронова Л. Цветоведение. – С.90.



fikrlarimizga biz o'ylagandan ko'ra ko'proq ta'sir qiladi. Ranglardan foydalanish orqali turli his-tuyg'ularni jumbushga keltirish va ularni uyg'otish mumkin. Shuning uchun yozuvchilar o'z nasriy va nazmiy asarlarida rang ramziyligidan foydalanishadi.

Biz ko'rgan ranglar atrof-muhitga bo'lgan munosabatimizga bevosita ta'sir qiladi. Ranglarning inson miyasidagi psixologik ta'siri vaqtlar o'tishi bilan hayotimiz davomida ongimizga singdirilgan va joylashtirgan ta'riflarga asoslangan holda vujudga keladi. Masalan, qizil rang, odatda, xavf-xatarni, yashil rang esa xavfsizlikni anglatadi.

Umuman olganda, maqolamizda atrofimizda biz bilan birga hamohang yashab kelayotgan ranglar va ularning ramziyligi xususida fikr yuritamiz.

Adabiyotshunoslikda rang ramziyligi nima? Adabiyotda ramziylik predmetlar, tasvirlar, shakllar va ranglar kabi ko'plab shakllarni o'z ichiga oladi. Ranglar yozma asarlarda alohida ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ular badiiy asarda ishlatilganda o'quvchining kayfiyatiga, g'oyalarga va tushunchalariga ta'sir qilish xususiyatiga ega. Madaniyat yoki jamiyatda ranglar o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, rang ramziyligi madaniyat, vaqt va kontekstda talqin qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yozuvchilarning simvolizmdan foydalanish sabablarini aniqlash uchun, eng avvalo, ular mualliflarga qanday yordam berishi mumkinligini bilib olishimiz lozim.

Adabiyotshunoslikda biror-bir harakat, predmet yoki ismga chuqurroq ma'no singdirish va ularni mazmunli qilish maqsadida timsollardan foydalaniladi. Ramz – bu boshqa bir narsaga ahamiyat qaratish uchun unga bog'lab qo'yiladigan aniq narsa.

Yozuvchilar kitobxon bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish o'rniga ramzlardan foydalanib, nima demoqchi ekanligini ularga uqtirishadi. Ushbu bilvosita yondashuvlar mualliflarga murakkablik yaratishda yordam beradi, ammo ramzlarning ma'nosi ishonchli bo'lishi uchun ular asarning qolgan qismida ham qo'llanilishi kerak.

Ramziylik ijodkor yozuvchilar va shoirlar uchun quyidagi jihatdan foydalidir:

- murakkab g'oyalar va markaziy mavzularni tushunishga yordam beradi;
- yozuvchilarga katta va murakkab g'oyalarni samarali, badiiy tarzda taqdim etish imkoniyatini beradi;
- muallif matnini o'rganayotganda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash jarayonini osonlashtiradi;
- matnga hissiy og'irlik qo'shadi;
- ochiq yondashish uchun juda munozarali mavzudan chalg'itadi.

Adabiyotda rang ramziyligining keng tarqalgan qo'llanilish holatlariga sahnani rang bilan bezash, hissiy munosabatlarni uyg'otish, muhit va kayfiyatni ko'rsatib berish kiradi.

Badiiy asarlarda xilma-xil ranglardan foydalanish orqali kitobxonlarda katta taassurot qoldiriladi. Masalan, daraxtlar yashil va jigarrang, osmon oq bilan ko'k, dengiz marvaridga o'xshash yashil. Elementlar resipiyentga asarni yoki she'rni o'qiyotganida ularning manzarasini tasavvur qilishiga yordam beradi.

Muallif ongidagi tasavvurlar badiiy asarda ranglar orqali yoritilsa, asar kitobxonini bilan o'zaro tajriba almashinadi. Boshqacha aytganda, yozuvchi ranglardan foydalanish orqali o'z kitobxonini bilan samarali muloqot olib boradi. Ranglar his-tuyg'ularni namoyon etishi tufayli she'rlarning hissiy ta'sirini oshirishi mumkin. She'riyatda



shoir tomonidan inson kechinmalari, ta'sirlanishlari, hayotiy tajribalarining ranglar bilan tasvirlanishi she'rnin o'qimishlilikini orttiradi. Masalan, ko'k rangni ishlatib, g'azabni yetkazish qiyin bo'lishi mumkin. Yaratilgan asar, xoh u ertak, hikoya, xoh u badiiy asar qanchalik yaxshi yozilgan bo'lsa ham, o'quvchilarning kayfiyatini tushurib yuborishi hamda yanada qayg'uli javob qaytarishiga olib kelishi mumkin. Ijodida shaxsiy tajribalaridan tez-tez foydalanadigan yoki ko'pincha voqealar rivojini bayon qilishga kirishgan yozuvchilar ranglar sxemasini o'zgartirish orqali o'z o'quvchilarining hissiy munosabatlarini qo'llab-quvvatlashadi.

Adabiyotda atmosfera, atrof-muhit yoki kayfiyatni yaratish uchun ham rangdan foydalaniladi. Shuningdek, ranglar badiiy asarda ohang, intensivlik va tezlik tuyg'usini yaratishga hissa qo'shadigan idrok aurasini yaratishga yordam beradi. Rangli muhit o'quvchilarni hikoya bo'ylab shunchaki sayohat qildirishdan ko'ra, o'zgaruvchan hikoya orqali tajribaga yo'naltirishi mumkin.

Jahon adabiyotida rang ramziyligi turlicha talqin qilinadi, chunki butun dunyo adabiyotida turli xil ranglar va ularning ma'nolari atroflicha o'rganilgan. Jumladan, Frantsuz adabiyotida rang ramziyligining o'ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. XII asrda frantsuz shoirlari va yozuvchilari romantika, xarakter va hissiyotlarni ifodalash uchun faqat yetti rangdan foydalanishgan. Bular: oq, qizil, sariq, ko'k, yashil qora va jigarrang edi.

Rang ramziyligini o'rganish uchun ertaklar eng yaxshi manba hisoblanadi. Qondek qizil, qordek oq, qarg'adek qora va hokazolarni o'z ichiga olgan elementlar

bolalarda hissiy reaksiyalarni uyg'otadi va hikoyani yanada yorqinroq qiladi.

Rang ramziyligi *Snow White* ertagi misolida tahlil qilinsa, oq rang jannatni, qizil rang qon to'kilishini va jozibali, ammo zaharli olmalarni, qora rang esa qayta tug'ilish va istakni anglatadi.

Gotik adabiyotda ham rang ramziyligiga alohida e'tibor qaratilgan. Qizil va qora ranglar juda ramziy ma'noga ega bo'lgan, chunki ular haqiqatan ham o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi va hissiy munosabatlarni yaratadi. 2004 yilda Alabama shtatidagi psixologiya yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra Gotik adabiyotda qizil rang ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi hukmronlikni anglatib, ham ijobiy ham salbiy his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkin. G'azab va shiddat, ehtiros va iliqlik ana shunday his-tuyg'ularga misol bo'la oladi. Qizil rang olov va qonni ham ifodalash bilan birga, ehtiros, qat'iyat va sevgini ham ifodalab keladi. Bundan tashqari, qizil ishtahani, metabolizmni, nafas olish tezligini va qon bosimini qo'zg'atadi va oshiradi. Qizil rang ko'zga yaqqol tashlanishi bois xavf-xatarni namoyon etish uchun ham ishlatiladi.

Qora rang o'lim, yovuzlik, rasmiyatchilik, nafislik va sir bilan bog'liq. Bu, ayniqsa, she'rlarda salbiy ma'noga ega va qizil yoki to'q sariq kabi ranglar bilan birlashtirilganda tajovuzkor ranglar sxemasini yaratishi mumkin. Umuman olganda, Gotik adabiyoti ijodkorlari qizil va qora ranglardan barcha adabiy ehtiyojlar uchun foydalanishadi.

Adabiyotda har bir rang ramziyligini ko'rib chiqib, ularning mazmun-mohiyatini anglashga urinib ko'ramiz.

Qizil rang barcha adabiyotlarda shiddatli va ehtirosli narsalar, hayajon, energiya, ehtiros, sevgi, istak, tezlik, kuch, issiqlik,



tajovuz, xavf, olov, qon, urush, zo'ravonlikni, Yaponiya adabiyotida esa samimiylik, baxt ma'nosini ifodalab kelgan.

Pushti rang sevgi, romantika, muloyimlik, qabul qilish va xotirjamlik bilan bog'liq.

Qaymoq rang va fil suyagi ranglari birlashish ramzi bo'lib, fil suyagi rangi xotirjamlik va yoqimlilikni, qaymoq rangi xotirjamlik va soddalikni anglatadi.

Sariq rang quvonch, baxt, xiyonat, nekbinlik, idealizm, tasavvur, umid, quyosh, yoz, oltin, falsafiy fikr, insofsizlik, qo'rqqoqlik, hasad, ochko'zlik, yolg'on, kasallik, xavf va do'stlikni anglatadi.

To'q ko'k rang bir so'z bilan aytganda, bu yaxlitlik, kuch va jiddiylikni bildiradi.

Moviy rang tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalik, uyg'unlik, birlik, ishonch, haqiqat, xavfsizlik, poklik, tartib, sadoqat, suv, texnologiya, tushkunlik, ishtahani bosuvchi ma'nolarini ifodalaydi.

Firuz rang - tinchlik, nafosat ramzi. Akvamarin (yashil-ko'k) suvni ifodalaydi. Och firuz rang ayollik kayfiyatini namoyon etadi.

Binafsha rang - oliynasablik, zodagonlilik, ma'naviyat, marosim, sirlilik, hikmat, ma'rifat, shafqatsizlik, nomus, takabburlik, motam, muloyimlik.

Siren rangi - ayollik, go'zallik, nazokatlilik ramzi.

Sabzi rang - energiya (kuch-quvvat), muvozanat, g'ayrat, ilqlik, kenglik, yorqinlik, e'tibor talab qiladi.

Yashil rang - tabiat, salomatlik, atrof-muhit, yangilanish, yoshlik, unumdorlik, hasad, tajribasizlik, baxtsizlik, kuch ramzi.

Jigar rang - barqarorlik, salomatlik, uy, yer tuyg'usi. Ochiq havo, qulaylik, chidamlilik va soddalik.

Kulrang - xavfsizlik, ishonchlilik, aql-zakovat, qat'iyatlilik, kamtarlik, qadr-qimmat, yetuklik, mustahkamlik, amaliylik, qarilik, qayg'u, zerikish.

Kumush rang tinchlikni anglatadi.

Oq rang - hurmat, poklik, tug'ilish, soddalik, kamtarlik, aniqlik, aybsizlik, yoshlik, qish, qor, yaxshi, bepustlik, nikoh (G'arbda), o'lim (Sharqda) yoki sovuq.

Qora rang - kuch-g'ayrat, nafosat, rasmiyatchilik, nafislik, boylik, sir, yovuzlik, baxtsizlik, chuqurlik, uslub, qayg'u, pushaymonlik, g'azab, anonimlik, yer osti, yaxshi texnik rang, motam, o'lim (G'arb madaniyati), qattiqqo'llilik, mustaqillik.

Oltin rang boylik, pul yoki dabdabali turmush tarzini anglatadi. F. Skott Fitsjeraldning "Buyuk Getsbi" klassik asarida rang ramziyligining ko'plab misollari mavjud. Oltin va jamiyatdagi hamma narsa o'rtasida bog'liqlik mavjud. Shuningdek, pulning rangi va ko'pincha "oltin qiz" ni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Umuman olganda, ranglar muayyan bir mazmun-mohiyat kasb etib, inson ruhiy holatlarini, atrof - muhitdagi o'zgarishlarni anglashga ko'maklashadi.

References:

1. Bottigheimer R.B. Magic Tales and Fairy Tale Magic. - UK, Palgrave Macmillan, 2014.
2. Bulatov S. B. Rang psixologiyasi. - Toshkent: Fan, 2003. - 110 b.
3. English fairy tales collected by Joseph Jacobs. - Pennsylvania State University, 2005. - 400 p.
4. Jumaeva S. Raqam, ma'no va tasvir. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. - 45 b.
5. Jo'raev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. - Toshkent: Fan, 1991. - 152 b.
6. Hartland E.S. English Fairy and other Folk Tales. Global grey, 2018.
7. Kerven R. English fairy tales and legends.- London, 2019



8. Nida E.A. Language and Culture // Entreculturas Número 1. ISSN: 1989-5097. Fecha de publicación: 27-03-2009. – P. 25-32.
9. Turdimov Sh. Rango-rang dunyo (“Birning ming jilvasi” turkumidan) // Yoshlik. – Toshkent, 1987. – №8. – B. 60-62.